

To'ra Bobolov bemor bolajonlar holidan xabar olib, yangi yil sovg'alarini ulashdi



Beg'ubor qalblarga quvonch, xush kayfiyat va umid uchqunini ulashish maqsadida bugun viloyat hokimi To'ra Bobolov ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i bilan birgalikda yangi yil munosabati bilan viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida bo'lib, bemor bolalar holidan xabar oldi hamda ularga bayram sovg'alarini ulashdi.

– Farzandim kasal bo'lganligi uchun Yangi yilni oila davrasida kutib ololmadik. Viloyat hokimining o'zlari kasalxonaga kelib, bayram bilan tabriklaganlari biz onalarni ko'nglini tog'dek ko'tardi. To'g'risi buni kutmagan edim. Ayniqsa, bolajonlarni quvonchini ko'rib, g'uborlarimiz aridi. Buning uchun katta rahmat aytaman – deydi Karomat Mirzaqulova.

Kutilmagan bayram tashrifi 75 nafar bolajonlar uchun bir olam quvonch hadya etdi.

https://t.me/axborot_xizmati